



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

SURXON-SHEROBOD VOHASIDA QADIMDAN SHAKLLANIB KELGAN MILLIY XALQ O'YINLARI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN AN'ANALAR

Chorshanbiyev Mashrabbek Habibullayevich
Termiz davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxon–Sherobod vohasi o'zining keskin mo'tadil iqlimi bilan ajralib turishi va yozning nihoyatda issiq, qishning esa shamolli va ba'zan sovuq kelishi ushbu hudud aholisini tabiat hodisalarini doimiy kuzatishga undagan. Natijada vohada qadimdan fenologik bilimlar shakllangan bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va an'anaviy turmush tarzida o'z aksini topgan. Bu holat milliy xalq o'yinlarining shakllanishi va rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qilganligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: «Avesto» asotirlariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog'liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol «piri».

ТРАДИЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С НАЦИОНАЛЬНЫМИ НАРОДНЫМИ ИГРАМИ, СФОРМИРОВАВШИМИСЯ С ДРЕВНИХ ВРЕМЁН В СУРХОН-ШЕРАБАДСКОМ ОАЗИСЕ

Чоршанбиев Машраббек Хабибуллаевич
Термезский государственный университет, независимый соискатель

Аннотация

В статье анализируется, что резко континентальный климат Сурхон-Шерабадского оазиса, характеризующийся очень жарким летом и ветреной, иногда холодной зимой, побуждал местное население к постоянному наблюдению за природными явлениями. В результате в регионе с древних времён сформировались фенологические знания, нашедшие отражение в устном народном творчестве, обычаях и традиционном образе жизни. Показано, что данный фактор сыграл важную роль в формировании и развитии национальных народных игр.

Ключевые слова: мифология «Авесты», Каюмарс, Анахита, Ахриман, дев, пери, аждар; культ воды, Хубби, Суст хотин, Сув хотин, Чала хотин; «пир» ветра.

TRADITIONS RELATED TO NATIONAL FOLK GAMES FORMED SINCE ANCIENT TIMES IN THE SURKHAN-SHERABAD OASIS

Chorshanbiyev Mashrabbek Habibullayevich
Termez State University, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes how the sharply continental climate of the Surkhan–Sherabad oasis, characterized by extremely hot summers and windy, sometimes cold winters, encouraged the local population to continuously observe natural phenomena. As a result, phenological knowledge has been formed in the region since ancient times, which is reflected in folklore, customs, and traditional lifestyles. The study shows that this factor played an important role in the formation and development of national folk games.

Keywords: Avesta mythology, Kayumars, Anahita, Ahriman, dev, peri, dragon; water cult, Hubbi, Sust khotin, Suv khotin, Chala khotin; wind “pir”.

Surxon–Sherobod vohasida milliy xalq o‘yinlarining yuksalishi bevosita xalqning mifologik tasavvurlari, diniy qarashlari va tabiat bilan uyg‘un hayot kechirish tajribasi bilan bog‘liqdir. Xalq og‘zaki ijodida uchraydigan Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar kabi mifologik obrazlar qadimiy dunyoqarashni ifodalab, o‘yinlarda ramziy ko‘rinishda namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, suv kulti bilan bog‘liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin singari obrazlar suv bilan bog‘liq marosimiy o‘yinlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Bu kabi o‘yinlar ko‘pincha hosildorlik, baraka va tozalik timsoli sifatida ijro etilgan. Shamol va tabiat hodisalari bilan bog‘liq Haydar, Yalli momo, Yalang‘och ota, Choymomo kabi tasavvurlar esa mavsumiy o‘yinlar, ayniqsa bolalar va yoshlar o‘yinlarida o‘z ifodasini topgan. Bunday o‘yinlar orqali tabiat kuchlariga hurmat va ehtiyotkorlik hissi shakllantirilgan. Xalq taqvimi bilan bog‘liq Ayamajuz, Aziz momo, Ahman Dahman obrazlari esa yil fasllari almashinuvi bilan bog‘liq o‘yin va marosimlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Bu jarayon milliy o‘yinlarning mavsumiy xarakter kasb etishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, Guldur momo (momaqalldiroq va chaqmoq timsoli) hamda Odami Od, Olang‘asar, Doroko‘z kabi afsonaviy pahlavonlar obrazlari kuch, jasorat va epchillikni targ‘ib qiluvchi o‘yinlarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Shu bilan birga, alvasti, yalmog‘iz kabi yovuz kuchlar haqidagi qarashlar bolalar o‘yinlarida ogohlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan[1:120].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

Surxon–Sherobod vohasida shakllangan mifologik obrazlarning aksariyati tabiat hodisalarining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tasavvurlar nafaqat dunyoqarashni shakllantirgan, balki milliy xalq o‘yinlarining mazmuni va g‘oyaviy asosiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, shamol piriga oid obrazlar shamol yo‘nalishi, fasllar almashinuvi va iqlim o‘zgarishlarini anglatib, ayrim harakatli o‘yinlarda ramziy tarzda ifodalangan. Suv bilan bog‘liq obrazlar esa vohada hayot manbai hisoblangan daryo, anhor, ariq va buloqlarni muhofaza qilish g‘oyasini targ‘ib etgan bo‘lib, bu hol suvga oid marosimiy va mavsumiy o‘yinlarda o‘z aksini topgan. Shu jihatdan qaraganda, mifologik qarashlar milliy xalq o‘yinlarining shakllanishida muhim o‘rin tutib, tabiatni anglashning dastlabki ilmiy bosqichi sifatida xizmat qilgan.

Vohada vaqtni hisoblash va mavsumiy faoliyatni tartibga solishda hijriy-shamsiy taqvimga amal qilingan. Oy burjlarining arabcha nomlanishi (hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jaddiy, dalv, hut) xalq o‘yinlarining mavsumiy xususiyatlarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Dehqonlar tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan xalq kalendari (dehqon taqvimi) asosida yil to‘rt faslga, har biri 90 kunlik “to‘qson”larga bo‘lingan bo‘lib, bu tizim o‘yinlarning ham vaqt va mazmun jihatidan tartiblanishiga zamin yaratgan. Masalan, bahorgi “to‘qson” davrida o‘tkazilgan o‘yinlar ko‘proq uyg‘onish, yangilanish va mehnatga tayyorgarlik g‘oyalarini ifodalagan bo‘lsa, yozgi davr o‘yinlari chidamlilik, epchillik va jismoniy baquvvatlikni sinovdan o‘tkazishga qaratilgan. Kuzgi o‘yinlar hosil yig‘im-terimi bilan bog‘liq holda bayramona ruhda tashkil etilgan, qishki davrda esa ko‘proq marosimiy va uy sharoitida o‘tkaziladigan o‘yinlar rivojlangan. Shuningdek, katta va kichik chillaga bo‘lingan yozgi va qishki davrlar ham xalq o‘yinlarining mazmuni va o‘tkazilish shakliga ta’sir ko‘rsatgan. Bahorning kirib kelishi, ya’ni hamal oyining boshlanishi bilan bog‘liq marosimlar, yulduzlar holati, qushlarning qaytishi kabi fenologik belgilar asosida tashkil etilgan o‘yinlar voha aholisining tabiat bilan uyg‘un hayot kechirganidan dalolat beradi[2:40].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Surxon–Sherobod vohasida tabiat hodisalarini kuzatish asosida shakllangan fenologik bilimlar milliy xalq o‘yinlarining mazmuni va vaqtini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, qushlar migratsiyasi voha aholisi uchun o‘ziga xos tabiiy kalendar vazifasini bajargan. Laylaklarning uchib kelishi bahorning boshlanishi sifatida qabul qilinib, bu davrda turli mavsumiy o‘yinlar va marosimlar tashkil etilgan[3:30].

Xalq ogʻzaki ijodida aks etgan fenologik kuzatuvlar dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bu jarayon milliy oʻyinlarda ham oʻz ifodasini topgan. Xususan, yilning eng sovuq davri hisoblangan hut oyining oxirlarida kuzatiladigan sovuq kunlar — Aziz momo (Ayozi momo, Ajuzmomo) davri sifatida talqin etilgan. Ushbu davrning oʻziga xos xususiyatlari xalq orasida turli maqol va iboralar orqali ifodalangan boʻlib, ular iqlim sharoitining xoʻjalik hayotiga taʼsirini aks ettiradi.

Masalan, “Yaxshi kelsa hut — kadi toʻla sut, yomon kelsa hut — keraga toʻla put” kabi maqollar chorvachilik tajribasiga asoslangan boʻlib, ob-havoning ijobiy yoki salbiy kelishi bilan bogʻliq natijalarni ifodalaydi. Bu kabi donishmandona qarashlar xalq oʻyinlarida ham bilvosita aks etib, yosh avlodga hayotiy tajribani yetkazish vositasiga aylangan. Shuningdek, Ayozi momo bilan bogʻliq tasavvurlar ham xalq oʻyinlarida ramziy koʻrinishda ifodalangan. Uning kelish davomiyligini ifodalovchi iboralar (olti kundan oʻn kungacha) tabiat hodisalarining beqarorligini anglatib, bu davrda oʻtkaziladigan oʻyinlar va marosimlarning ehtiyotkorlik bilan tashkil etilishiga sabab boʻlgan. Bu orqali aholi iqlim sharoitiga moslashish koʻnikmalarini shakllantirgan[4:53].

Ajuzmomo obrazi esa qish faslining timsoli sifatida xalq ongida muhim oʻrin egallagan. Ushbu mifologik obraz orqali qish oxiridagi keskin sovuqlar, yaʼni bahor oldi xavfli davrlar ifodalangan. Shu bois, ayrim marosimiy oʻyinlar va udumlar orqali sovuqning zarari kamaytiriladi, degan eʼtiqod mavjud boʻlgan. Bunday oʻyinlar nafaqat koʻngilochar, balki ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ega boʻlib, jamoani birlashtirish va xavf-xatarlarga nisbatan tayyorlash vazifasini bajargan.

NATIJALAR (RESULTS) Surxon–Sherobod vohasida milliy xalq oʻyinlarining shakllanishi va rivojlanishida marosimiy udumlar alohida oʻrin tutadi. Ayniqsa, suv va hosildorlik bilan bogʻliq marosimlar oʻyin elementlari bilan uygʻunlashib, xalq madaniyatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Shunday udumlardan biri Koʻhitang togʻ hududidagi Kalapoʻshqiya qishlogʻida oʻtkazilgan “Suv sulton xotin” marosimidir. Mazkur marosimda ikkiqat ayol ishtirok etib, unga maxsus kiyim kiydirilgan va boshiga roʻmol oʻralgan. Keyinchalik ushbu kiyimlar yechib olinib, qoʻgʻirchoq yasashda foydalanilgan. Ikki gaz uzunlikdagi xoda asosida tayyorlangan qoʻgʻirchoq xalq tasavvurida suv va baraka timsoli sifatida talqin etilgan. Uni koʻtarib yurish jarayonida ayol ovuldagi har bir oʻtovga kirib, qoʻgʻirchoqni eshik ustiga qoʻygan[5:133].

Marosim davomida qoʻgʻirchoqqa suv sepish, jamoaviy tarzda qoʻshiq kuylash kabi elementlar kuzatiladi. Ushbu jarayon oʻz mohiyatiga koʻra marosimiy oʻyin xarakteriga ega boʻlib, unda harakat, ritm, qoʻshiq va ramziy obrazlar uygʻunlashgan. Ayniqsa, suv sepish harakati yomgʻir chaqirish gʻoyasini ifodalab, tabiat kuchlariga taʼsir oʻtkazish istagini aks ettirgan. “Suv sulton xotin” marosimi asosan yarim koʻchmanchi va yarim oʻtroq aholi orasida keng tarqalgan boʻlib, unda ishtirokchilarning ichki ishonchi muhim ahamiyat kasb etgan. Yaʼni, marosim samarali boʻlishi uchun unda qatnashuvchilar yomgʻir yogʻishiga chin dildan ishonishlari talab etilgan. Bu esa marosimiy oʻyinlarning nafaqat koʻngilochar, balki eʼtiqodiy va psixologik asosga ega ekanligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, ushbu marosim milliy xalq oʻyinlarining kelib chiqishida qadimiy eʼtiqodlar, tabiat kultlari va ijtimoiy hayot tarzining oʻzaro uygʻunlashganligini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Shunday qilib, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, iqlim sharoitining oʻziga xos xususiyatlari mahalliy aholining xoʻjalik mashgʻulotlariga bevosita taʼsir koʻrsatgan, shu orqali aholi orasida turli marosimlar, urf-odat va udumlarga amal qilib kelingani xalq orasida saqlanib kelayotgan ibora va qarashlarda oʻz ifodasini topgan[6. 121].

Bundan tashqari, tabiat hodisalaridan yomgʻirning yogʻishi, qurgʻoqchilik, oʻt-oʻlanning koʻkarishi yoki qishning qattiq kelishi odamlar turmush tarzi va mehnat jarayonini belgilab bergan. Shu sababli dehqon va chorvador aholi tabiat bilan uygʻun yashashga intilib, uning

o'zgarishlarini turli ramziy marosimlar orqali «boshqarish» yoki «yumshatish»ga harakat qilgan. Yomg'ir chaqirish, pirlarga atab sadaqa qilish kabi udumlar nafaqat ishonch-e'tiqod natijasi, balki jamoani birlashtiruvchi ijtimoiy omil sifatida ham xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. - Т., 1994.
2. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р. “Ўзбекистон жанубий ҳудудларида маданий ва амалий санъат ёдгорликлари тарихи”. Термиз., “Сурхон-Нашр”, 2017. –Б.44
3. Турсунов С.Н. ”Халқ ҳикматларининг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти”.Тошкент, “Yangi nashr”, 2014. –Б.30.
4. Ўринбоев Б. «Алпомиш» достони матнида этнографизм» «Алпомиш» достони ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзуидаги халқаро конференция материаллари. -Тошкент: Фан, 1999.-Б. 52.
5. Эшкурбонов С. Сурхон воҳаси аҳолисининг хўжалик-маданий ҳаётида анъаналар ва замонавийлик (деҳқончилик мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Термиз, 2022.
6. Қобилов Э. Сурхон воҳаси чорвачилиги атамалари Ўзбекистонда моддий маданият ва этномаданий жараёнлар. Республика илмий-амалий анжумани.-Термиз, 2010.- Б. 33-35.